

**Termiz Davlat Universiteti „Jinoyat
huquqi va fuqarolik protsessi
“ kafedrasi Dotsent, Yangiboyev
Norquvvat Qulnazarovich taqrizi
ostida**

**Elmurodov Asadbek Nurbek o‘g‘li
Termiz Davlat Universiteti „Yuridik
fakultet “ talabasi
Telefon raqami: +998 99 945 04 25
E-mail: elmurodovasadbek367@gmail.com**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY SUDLARI TOMONIDAN DA’VONI TA’MINLASH USULLARINING AHAMIYATI VA HUQUQIY OQIBATI

Annotatsiya: Hozirgi kunda sudlar tomonidan ko‘rib,qonuniy hal etilgan masalaning oxirgi bosqichi bu sud hujjatining ijrosidir.Ushbu sud hujjatlarning belgilangan muddatlardagi ijrosi da’voni ta’minalash chora-tadbirlarida namoyon bo‘ladi.Ya’ni samarali yechimning ijrosidagi muommolarni bartarf etishning qonuniy usullari majmuidir.

Kalit so‘zlar: Da’voni ta’minalash,da’vogar,javobgar,iqtisodiy sud,ajrim,shikoyat, sudga ariza.

ЗНАЧЕНИЕ И ПРАВОВЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ МЕТОДОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИСКА ЭКОНОМИЧЕСКИМИ СУДАМИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В настоящее время последней стадией вопроса, который рассматривается и юридически решается судами, является исполнение судебного документа. Исполнение судебных документов в указанные сроки находит свое отражение в мерах по обеспечению иска. методов решения задач при выполнении эффективного решения..

Ключевые слова: Обеспечение иска, истец, ответчик, экономический суд, решение, жалоба, заявление в суд.

THE IMPORTANCE AND LEGAL CONSEQUENCE OF THE METHODS OF SECURING THE CLAIM BY THE ECONOMIC COURTS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation: The final stage of the matter,which is currently considered and legally resolved by the courts, is the execution of the writ.The execution of these court documents within the specified deadlines is manifested in measures to ensure the claim.That is, it is a set of legal ways to eliminate attitudes in the execution of an effective solution.

Keywords: Securing the claim, plaintiff, defendant, economic court, court document, complaint,application to the court.

Bugungi kunda rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar sud hokimiyatidagi yangilanishlar va ularning vakolat doirasida o‘zgarishlar kuzatilmoqda.O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimida ham sudlarning o‘rini beqiyosdir.Chunki sudlar tomonidan har bir masala yuzasidan qonuniy to‘xtamga kelinadi va adolatli yechim topiladi.Shu jumladan iqtisodiy sudlar ham vakolatlari doirasiga kiruvchi masalalarni ko‘rib qonuniy,asosli va adolatli hal qiluv qarorlari chiqarish vazifasini bajaradigan sud hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish

choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4966-sonli Farmoniga asosan 2017-yil 1-iyundan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi birlashtirilib, fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy sud ish yuritvi sohasida sud hokimiyatining yagona olyi organi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi.O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudlov hay’ati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar iqtisodiy sudlari hamda tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari iqtisodiy nizolarni hal etuvchi sud organlari hisoblanadi.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasining 14 ta ma’muriy-hududiy birligida viloyat darajasidagi 14 ta iqtisodiy sud hamda ishlarni birinchi instansiya ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan 71 ta tumanlararo, tuman(shahar) iqtisodiy sudlari mavjud.Shu kunga qadar respublikamizda faoliyat yuritgan xo‘jalik sudlari faoliyati 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Xo‘jalik protsessual kodeksi bilan tartibga solingan edi. Ayni paytda 2017-yilning 1-iyunidan boshlab, bu sudlar iqtisodiy sudlar deb qayta nomlandi va ushbu sudlar faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi qabul qilindi.[1]

O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 37-moddasiga ko‘ra tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarni va korporativ nizolarni, shuningdek qonun bilan uning vakolatlari doirasiga berilgan ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiy sudi, viloyatlar iqtisodiy sudlari va Toshkent shahar iqtisodiy sudi o‘z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida appellatsiya, kassatsiya tartibida ko‘radi.Tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarni va korporativ nizolarni, shuningdek qonun bilan uning vakolatlari doirasiga berilgan ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqadi.[2]

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy sudlar tomonidan da’voni ta’minlash chora-tadbirlari alohida o‘ringa egadir, chunki da’vogar o‘zing da’vosi qanoatlantirilishning kafolati hisoblanadi.

Da’voni ta’minlash - iqtisodiy sud ish yuritish ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishning muhim kafolati. Da’voni ta’minlash instituti iqtisodiy sudi ishtirokchilari va boshqa shaxsiarning noqonuniy xatti-harakatlari natijasida buzilgan mulk huquqlarini real va to’liq tiklashga qaratilgan protsessual choradir.Da’voni ta’minlashning maqsadi iqtisodiy sudning qarorlarini to‘g‘ri va to’liq bajarilishini ta’minlashdir. Da’voni ta’minlash to‘g‘risidagi ajrim qabul qilishda sud ushbu choralarни qabul qilish zaruratini aniqlashi lozim. Shu bilan birga sudda bir nechta da’voni ta’minlash choralar ko‘rilishi mumkin. Iqtisodiy sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilgan da’vogar javobgar tomonidan o‘z talabining bajarilishiga erishishi kerak. Agar sud qarorini ijro etish qiyin yoki imkonsiz bo‘lib qoladi degan fikrga kelsa, da’vogardan kelgusida iqtisodiy sud qarorining bajarilishini ta’minlashga qaratilgan choralar ko‘rishi so‘rashi mumkin.

Da’voni ta’minlashga iqtisodiy sud ishining istalgan bosqichida yo‘l qo‘yiladi. Da’voni ta’minlash to‘g‘risidagi arizani faqat da’vogar berishi mumkin.Da’voni ta’minlash choralar iqtisodiy ishning o‘ziga xos holatlarini hisobga olgan holda va faqat zarurat tug‘ilganda amalga oshirilishi kerak, chunki har qanday holatda da’voni ta’minlash javobgarning huquq va manfaatlariga ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Quyidagilar da'voni ta'minlash choralari bo'lishi mumkin:

- 1) javobgarga tegishli mol-mulkni yoki pul mablag'larini xatlab qo'yish;
- 2) javobgarga muayyan harakatlarni bajarishni taqilash;
- 3) boshqa shaxslarga nizo predmetiga aloqador bo'lgan muayyan harakatlarni bajarishni taqilash;
- 4) da'vogar nizolashayotgan, undirish so'zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjati yoki boshqa hujjat bo'yicha undirishni to'xtatib turish;
- 5) mol-mulkni xatlashdan ozod qilish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilgan taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilishni to'xtatib turish;
- 6) nizoli mol-mulk buzilishining, holati yomonlashishining oldini olish maqsadida javobgarning zimmasiga muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklatish;
- 7) nizoli mol-mulkni uchinchi shaxsga (saqlovchiga) o'tkazish.[3]

Iqtisodiy sudlar tomonidan ishni ko'rish bilan bog'liq munosabatlar shu jumladan da'voni ta'minlash tartibi ham O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual Kodeksida belgilab qo'yilgan. Aynan da'voni ta'minlash asoslari va tartibi Iqtisodiy protsessual Kodeksining 8-bob 93-100-moddalarida belgilab qo'yilgan.

Da'voni ta'minlash uchun eng avvalo da'voni ta'minlash yuzasidan iqtisodiy sudga ariza berilishi kerak Iqtisodiy protsessual Kodeksining 96-moddasiga ko'ra da'vo arizasi bilan birga berilgan da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish bilan bir vaqtda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilmasdan sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Agar da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza sud majlisida berilgan taqdirda, u shu majlisda ko'rib chiqilishi lozim. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqarilib, uning ko'chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi.[4]

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim sud hujjatlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda darhol ijro etiladi. Darhol ijro etilishining asosiy sababi kelgusida sudning chiqargan hal qiluv qarorini ijro etish bilan bog'liq salbiy holatlar yuzaga kelishini oldini olishdir. Da'voni ta'minlash haqidagi yoki da'voni ta'minlashni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Shikoyat berilishi (protest keltirilishi) ajrimning ijrosini to'xtatib qo'yaydi.

Shuningdek da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirishga yo'lli qo'yiladi. Da'voni ta'minlash chorasini almashtirish ishni ko'rayotgan sud tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxsning iltimosnomasiga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Sud ushbu holatda ajrim chiqaradi. Da'voni ta'minlash chorasini almashtirish haqidagi yoki almashtirishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Shikoyat (protest) berilishi ajrimning ijrosini to'xtatib qo'yaydi.

Da'voni ta'minlash choralarining huquqiy oqibati quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Da'vo ta'minlash to'g'risidagi ariza qabul qilingandan keyin da'vo qanoatlantirilgan taqdirda sud hujjati amalda ijro etilguniga qadar o'z kuchida bo'ladi.
2. Da'vo ta'minlash to'g'risidagi ariza qabul qilingandan keyin agar da'voni ta'minlash choralari ishni ko'rayotgan sud tomonidan ishda ishtirok etuvchi shaxsning iltimosnomasiga ko'ra bekor qilinishi mumkin.
3. Da'voni qanoatlantirish rad etilgan, da'vo ko'rmasdan qoldirilgan, ish yuritish tugatilgan hollarda, da'voni ta'minlash choralari tegishli sud hujjati qonuniy kuchga kirguniga qadar o'z kuchini saqlaydi

4. Da'voni rad etish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin javobgar da'vogardan da'voni ta'minlash tufayli o‘ziga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashni o‘sha sudda da'vo taqdim etish yo‘li bilan talab qilishga haqli.

Xulosa:

Bugungi kunda sud amaliyotida da'voni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.Chunki sud tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarori yoki ajrimlarining ijrosini ta'minlashdagi noaniqliklarni bartaraf etadi.Shuningdek da'vogarning da'vosini kafolatlaydi va keltirilgan zararlarni undirishdagi muommolarni bartaraf etadi.Iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rileyotgan masalalar yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorlarining ijrosi o‘z vaqtida samarali ijro etilishi hamda da'vogarning qanoatlantirilgan da'vosi belgilangan muddatlarda ijrosi ta'minlash uchun ko‘riladigan muhim chora-tadbirlar hisoblanadi.Iqtisodiy sud o‘z vakolatlari doirasiga kiruvchi masalaning hal etilishida aynan da'voni ta'minlash muhim ekanligiga ham asosli va qonuniy ekanligiga e'tibor qaratadi.Chunki da'voni ta'minlash usullari bir vaqtning o‘zida javobgarning huquq va mafaatlariga jiddiy zarar yetkazishi ham mumkin shuning uchun sud har tomonlama maqbul va qonuniy chora tadbirlarni qo‘llaydi.Ushbu amaliyot rivojlangan davlatlarda ham yaxshi samara berishi isbotini topgan.Masalan iqtisodiy zarar yetkazgan korxona yoki tashkilot ko‘p hollarda ongli ravishda zararni qoplashga emas javobgarlikdan qochishga harakat qiladi.bunday vaziyatlarda da'vogar da'voni ta'minlashni sud tominidan so‘rab ariza berishi eng maqbul yechim hisoblanadi.O‘zbekiston Respublikasida barcha sudlar o‘z vakolatlari doirasiga kiruvchi masalalarini ko‘rib qonuniy,asosli va adolatli hal etish ularing asosiy prinpi hamda maqsadidir.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Tuzuvchilar: y.f.d., prof. O.Okyulov, y.f.d., prof. Z.N.Esanova va boshqalar. “Iqtisodiy protsessual huquqi”. Darslik.T.,2020 y. b.4-5.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘isidagi”Qonun.T.2000. 37-m
3. Tuzuvchilar: y.f.d., prof. Z.N.Esanova ,y.f.n., prof.D.Xabibullayev va boshqalar. “Iqtisodiy protsessual huquqi”. Darslik.T.,2022 y. b.116-118.
4. O‘zbekistoni Respublikasi Iqtisodiy protsessual Kodeks.T.2018 93-100- m
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldaggi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4966-sonli Farmoni.